

## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA`LIM TIZMIDA FINLANDIYA TA`LIM DASTURLARI VA DARSLIKLARI

**Gulsanam Shomansurova Muxametjon qizi**

*2- kurs magistranti*

*toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Anatassiya :** *ushbu maqolada finlandiya oliy ta'limini O'zbekistonda tajriba qilinishi Finlandiya oliy ta'lim tizmi va O'zbekiston oliy ta'lim tizimlarini solishtirish hamda O'zbekistondagi Find ta'limni joriy etgan oliy ta'lim muossasalari haqida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalt so'zlar :** *O'zbekiston -Finlandiya oliy ta'limmi tizimlari , oliy ta'lim turlari .  
Dastur va tizim*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimini takomillashtirish ko'plab chora tabirlar amalga oshirildi . Ayniqsa Oliy Ta'lim tizimi tupdan isloh qilindi . Hozirgi kunda yurtimizda xalqaro tajribalar , xalqlararo ham do'stlik jadal rivojlanib bormoqda . Xorijiy mamlakatlar bilan hakorlik qilishda talim muossasalari bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Jumladan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning 33-moddasida - mamlakat ta'lim muossasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda, chet davlatlarining tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun xujjarlaridan berilgan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega" deb belgilangan. Shunga amal qilgan holda hozirgi kunda respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlari xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik rishtalarini o'rnatmoqda. .

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko'lamli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham , mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu—ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz , Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.<sup>79</sup> O'zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo'lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida<sup>80</sup>. Shunday ekan ngini ma'naviyatini salohiyatini madaniyatini bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga

<sup>79</sup> Sh.M. Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

<sup>80</sup> <https://www.unicef.org>

istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo'yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilgacha mo'ljallangan konsepsiya va ta'lim to'g'risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o'ylab, davlatimiz rivojini o'ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas. Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va Yechimlarni qamrab olgan 30 yilgacha mo'ljallangan konsepsiyaning qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Ta'lim sifati O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Kontsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Ta'lim bo'yicha ekspert, Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi islohotlariga bag'ishlangan «Finnish Lessons» kitobi muallifi Pasi Salbergning yozishicha<sup>81</sup>, Finlyandiya o'qituvchilarni «qamchi va shirinlik» tamoyili asosida harakatga keltirishga intilish yo'q, aksincha, ularga katta **erkinlik (avtonomiya)** beriladi. O'qituvchilar o'z o'quvchilarini baholab borishlari va ularning davomati haqida hisobotlarni taqdim etishlari kerak, ammo, ayni vaqtda, ularning nazarida o'quvchilarga mosroq keladigan o'z dasturlarini ham ishlab chiqishlari mumkin. Jahon bankining qayd etishicha,<sup>82</sup> bu tizim o'zaro ishonch asosiga qurilgan: Finlyandiyaning Ta'limni baholash markazi (FINEEC)<sup>83</sup> shaharlarni alohida-alohida tanlab olib, muntazam baholashlar o'tkazib turadi, ammo bunda maktablarni bir-biri bilan taqqoslamaydi, bunday baholashga tushmagan maktablar esa o'qitishdagi muammolarni aniqlash va tuzatish uchun o'zining baholash usullaridan foydalanadi. Umuman olganda, **nomarkazlashuv (detsentralizatsiya)** hamda munitsipalitetlar maktablarga **erkinlik (avtonomiya)** berilishini ko'plab tadqiqotchilar fin ta'lim tizimidagi islohotlarning eng muhim samaralaridan biri, deya e'tirof etadi<sup>84</sup>. Misol uchun, Milliy o'quv dasturi<sup>85</sup> maktabdagi har bir fan bo'yicha maqsad va vazifalarni, shuningdek, ta'lim muhiti,

<sup>81</sup> <https://harvardpolitics.com/recreating-finnish-miracle/>.

<sup>82</sup> <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/17510/799460WPOSABER0Box0379797B00PUBLIC0.pdf?sequence=1&isAllowed=y>.

<sup>83</sup> <https://karvi.fi/en/fineec/>

<sup>84</sup> [https://www.researchgate.net/publication/330289073\\_Analysis\\_of\\_Finnish\\_Education\\_System\\_to\\_question\\_the\\_reasons\\_behind\\_Finnish\\_success\\_in\\_PISA](https://www.researchgate.net/publication/330289073_Analysis_of_Finnish_Education_System_to_question_the_reasons_behind_Finnish_success_in_PISA)

<sup>85</sup> <https://www.oph.fi/sites/default/files/documents/new-national-core-curriculum-for-basic-education.pdf>.

o'qitish va baholashga aloqador umumiy qoidalarni belgilab beradi, biroq munitsipalitetlar va maktablar milliy dastur hamda mahalliy o'ziga xosliklar va o'z o'quvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z dasturlarini ishlab chiqishi mumkin.

O'zbekistonda umumta'lim maktablari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur va rejalarga qat'iy rioya qilishi shart. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi maktablarni akkreditatsiyadan o'tkazib, ularning reytingini<sup>86</sup> tuzadi, o'qituvchilar esa Vazirlar Mahkamasining qarori<sup>87</sup> bilan tartibga solinadigan attestatsiya jarayonidan muntazam o'tib turishi talab etiladi.

### DARSLIKLAR

Finlyandiyada darsliklar Sanoma Pro<sup>88</sup>, Otava<sup>89</sup> yoki Edita<sup>90</sup> kabi ko'plab nashriyotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Nashriyotlar odatda o'z mahsulotlari namunalarini maktablarga yuboradi, shuningdek, pedagoglarni bozorda mavjud mahsulotlar bilan tanishib, o'z tanlovini amalga oshirishi uchun yangi darsliklarning taqdimotlariga taklif qiladi. Xarid qilinadigan darsliklar masalasidagi hal qiluvchi qaror maktab direktorlari va munitsipalitetlar rahbariyati tomonidan qabul qilinadi. Maktablar darsliklarni o'quvchilarga bepul taqdim etadi va kelgusi avlod o'quvchilari ham ushbu darsliklardan foydalana olishlari uchun ehtiyotkorlik bilan foydalanishni so'raydi. Ko'plab nashriyotlar darsliklarning raqamli talqinini va darsliklarga ilova qilish mumkin bo'lgan boshqa ko'plab resurslarni ham taqdim etadi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha,<sup>91</sup> darsliklar umumta'lim maktabida hal qiluvchi rolni o'ynaydi va aksariyat o'qituvchilar uchun «o'quv dasturining ekvivalenti»ga aylanadi. Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi.

### FINLYANDIYADA O'RTACHA MAJBURIY UMUMTA'LIM TIZIMI IKKI BOSQICHLI MAKTABNI O'Z ICHIGA OLADI

- quyi (alakoulu), 1-6 sinf;
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

<sup>86</sup> <https://reyting.tdi.uz/school/>

<sup>87</sup> <https://lex.uz/pdfs/5641270>

<sup>88</sup> <https://www.sanomapro.fi/>

<sup>89</sup> <https://oppimisenpalvelut.otava.fi/>

<sup>90</sup> <https://oppiminen.edita.fi/oppimateriaalit/>

<sup>91</sup> <https://www.tandfonline.com/doi/pdf/10.1080/02607476.2021.1896341?needAccess=true>

Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilar o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi. Fin boshlang'ich o'rta maktabi umumiy ma'lumot beradigan maktablardandir. Xalqaro qiyoslash tadqiqotlari natijalari bo'yicha, 15 yoshli boshlang'ich o'rta maktabi bitiruvchilari ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha juda yaxshi bilimga egalari. Boshlang'ich o'rta maktabni bitirgandan so'ng ta'lim olishni davom etish mumkin va bu barcha uchun tavsiya qilinadi. O'rta maktab bitiruvchilarining deyarli 92 foizi darhol litsey yoki kasb-hunar kollejlari hujjat topshiradilar (2009 y.).

Litsey yoki kasb-hunar kollejjida olinadigan ikkinchi bosqich ta'limi, o'quvchini keyinchalik Finlyandiya yoki chet eldagi oliy o'quv yurtiga kirishgatayyorlaydi. O'rta maktabni bitirgandan keyin ta'lim olishni davom ettirmaslikka qaror qilganlar uchun, bepul ta'limning muqobil turlari taklif qilinadi. Finlyandiyadagi kasb-hunar ta'limi o'zining yuqori sifatligi bilan ajralib turadi va hunarga ega bo'lish uchun bepul imkoniyat yaratadi. Kasb-hunar ta'lim dasturi ham nazariy, ham amaliy o'qitishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ta'lim muassasasini bitirishdan keyin o'z mehnat faoliyatini boshlashi uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy ko'nikmalarni ham beradi. Kasb-hunar ta'lim muassasalari ham litseylar kabi mashhurlar.

Kasb-hunar kollejlarning ko'pchilik bitiruvchilari darhol mehnat faoliyatlarini boshlaydilar. Bitiruvchilarning bir qismi ta'lim olishni davom ettirishga qaror qiladilar va oliy toifadagi kasbhunar ta'lim muassasalari yoki universitetlarga hujjat topshiradilar. Umumiy ta'lim xususiyatlariga ega bo'lgan litsey (to'liq o'rta) ta'limini boshlang'ich o'rta maktab bitiruvchilarining taxminan yarmi tanlaydi va litseyni tamomlagandan so'ng davlat imtihonlarini topshiradilar. Litseydagi ta'lim bepuldir.

O'qitish o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga asoslangan holda 2 yildan 4 yilgacha davom etadi. Milliy umuta'lim o'quv rejasi majburiy predmetlar shakliga ega. Bundan tashqari, o'quvchi o'z xohishi bo'yicha bir qator predmetlarni litsey o'qitish kursini bajarish uchun tanlaydi. Ikkinchi bosqich ta'limi diplomini olgandan so'ng, o'quvchi oliy o'quv yurtida ta'lim olishni davom ettirishi va universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi mumkin. Abituriyent universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga kirish uchun kirish imtihonini topshirishi kerak. Kirish imtihonidan muvaffaqiyatli ravishda o'tgan talaba, oliy ta'limning ikki bosqichli kursini olish huquqiga va bakalavr unvoniga ega bo'lishi, yoki yanada uzoqroqqa ketib, qo'shimcha kirish imtihonini talab qilmaydigan magistr unvoniga ham ega bo'lishi mumkin. Ta'lim olish va bitiruv imtihonlari bepuldir.

Amalga oshirilayotgan talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchi-olimlar almashinuvi xalqaro bog'lanishlarni ta'minlaydi. Ta'lim olishning bepulligi, fin oliy ta'lim muassasalarining boshqa davlatlarning talabalari uchun jozibador bo'lishining muhim omilidir. Ta'lim bir vaqtning o'zida ham tekin, ham bepul bo'lishi mumkinligi, xorijiy mutaxassislarining ancha hayron bo'lishlariga olib keladi. Fin ta'lim tizimining asosiga ham iqtidorli, ham harakatchan, ham boshqalarning ko'magiga muhtoj bo'lgan barcha o'quvchilarga istisno qilmagan holda, ta'lim darajasini yuksaltirishning bepul muqobil

turlarini taklif qilish g'oyasi kiritilgan. Ta'lim olish imkoniyatlari bo'yicha ma'lumot berish maktab kuratori orqali amalga oshiriladi. Talaba kreditlari tizimi o'qish davrida iqtisodiy yordam berish uchun mo'ljallangan. Finlyandiyada ta'lim olishning bepulligi, ta'lim tizimining tenghuquqli va adolatli ekanligini ko'rsatmoqda<sup>92</sup>.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini o'qitishning yuqoridagi innovatsion usullari bir vaqtning o'zida ta'limni rivojlantirishiga va o'quvchini tarix fanini o'zlashtirish darajasini ko'tarishda va natijada oldinga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarga yetishga zamin yaratadi. Bunda dars jarayonida aniq natijaviyligi kafolatlangan bu kabi usullarni tizimli ravishda qo'llash oxir-oqibatda o'z tarixiga befarq bo'lmagan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bugungi kunda yangi, chuqur bilimlar talab etuvchi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitlarida mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, kasbiy mahorat cho'qqilarini egallashga qodir va kasbiy moslashuvchanlik xislatlariga ega bo'lgan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash zarurati alohida e'tibor talab etadi<sup>93</sup>. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonini ilm-fanning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tashkil etish, fan, madaniyat, iqtisodiyot, texnika va texnologiyalardagi yangiliklarni o'zida aks ettiradigan ta'limni har tomonlama uzluksiz ravishda yangilab borish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohaslarining integratsiyasini, ta'lim dasturlarining variativligini ta'minlashni talab etadi. Qo'yilgan vazifalar oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish davrining barcha bosqichlarida hal etib borilishi kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishga faqatgina mustahkam nazariy tayyorgarlikka, keng dunyoqarashga, chuqur bilimlarga, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislargina qodir bo'ladilar.

#### ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. <https://www.unicef.org>
3. <https://daryo.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob
5. Grigoriy Petrov " Oq nilufarlar yurtida " , " Factor press" Toshkent – 2021
6. Sonya Kosunen, Doktorant, ta'lim vazirining parlamentdagi sobiq yordamchisi
7. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi/ Toshkent; "Sharq", 1997 yil.
8. <https://reyting.tdi.uz/school/>
9. <https://lex.uz/pdfs/5641270>
10. <https://www.sanomapro.fi/>
11. <https://oppimisenpalvelut.otava.fi/>

<sup>92</sup> . Sonya Kosunen, Doktorant, ta'lim vazirining parlamentdagi sobiq yordamchisi

<sup>93</sup> O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi/ Toshkent; "Sharq", 1997 yil.

12. <https://oppiminen.edita.fi/oppimateriaalit/>
13. <https://www.tandfonline.com/doi/pdf/10.1080/02607476.2021.1896341?needAccess=true>
14. <https://harvardpolitics.com/recreating-finnish-miracle/>.
15. <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/17510/799460/WPOSABER0Box0379797B00PUBLIC0.pdf?sequence=1&isAllowed=y>.
16. <https://karvi.fi/en/fineec/>
17. [https://www.researchgate.net/publication/330289073\\_Analysis\\_of\\_Finnish\\_Education\\_System\\_to\\_question\\_the\\_reasons\\_behind\\_Finnish\\_success\\_in\\_PISA](https://www.researchgate.net/publication/330289073_Analysis_of_Finnish_Education_System_to_question_the_reasons_behind_Finnish_success_in_PISA)
18. <https://www.oph.fi/sites/default/files/documents/new-national-core-curriculum-for-basic-education.pdf> .
19. <https://reyting.tdi.uz/school/>
20. <https://lex.uz/pdfs/5641270>